

«Asaka» bank – muvaffaqiyatlar garovi

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bank tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar va talablarni ijro etish borasida «Asaka» Aksiyadorlik tijorat banki Toshkent shahar filiali tomonidan bank asosiy ko'rsatkichlarini ildam o'sishini ta'minlash, yuqori likvidlik va barqarorlikka erishish, ichki bozor va eksport talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga hamda aholiga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Bank filiali o'z mijozlariga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Aholidan va yuridik shaxslardan jalb etilgan mablag'larni iqtisodiyotning real sektoriga samarali yo'naltirib, bu mablag'larni omonatchilar va aksiyadorlarning manfaatlariga mos ravishda ko'paytirib bormoqda. Bunda «Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun» degan eng asosiy tamoyil dasturi amal bo'lmoqda.

Bank filiali tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar, korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarini tezlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatini yaxshilash borasida davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaror va farmonlarning bajarilishini ta'minlash borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarni shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shuni inobatga olgan holda, Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqiy himoyasini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rnini va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklolarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida 2015 yil 15 mayda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonini qabul qilinishi, ishbilarmonlar va tadbirkorlarni rivojlanishi uchun yanada katta imkoniyatlar yaratdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarda «Asaka» bank Toshkent shahar filialining ham hissasi oshib bormoqda.

Kichik biznes vakillariga, yosh tadbirkorlarga filialning malakali mutaxassisleri maslahat va amaliy yordamlarini ko'rsatib kelmoqdalar.

2015 yil 1 oktyabr holatiga bank filiali kredit portfeli hajmi qariyb 190,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi.

Filial tomonidan joriy yilning 9 oyi mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga jami 87,1 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Bu mablag'lar Toshkent shahrida ishlab chiqarish, servis va xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish, shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy turmushini yuksaltirishga xizmat qilishi va qolaversa, mamlakat kuch-qudratini oshirishga munosib ulush bo'lib qo'shilish barobarida, ushbu sarmoyalar evaziga qo'shimcha ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilib, shahardagi yoshlar, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ish bilan ta'minlandilar.

Bank filiali tomonidan ayollar tadbirkorligini tashkil qilish va rivojlantirish uchun 3,3 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 23,4 mlrd.so'm, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va ichki bozorni to'ldirish maqsadida 47,9 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

—Ishlab chiqarish ko'lamini yanada rivojlantirish maqsadida «Asaka» bank Toshkent shahar filialiga murojaat etdik, — deydi Mirobod tumanida faoliyat ko'rsatayotgan **«DAISY PRODUCT» MChJ rahbari Mirzabek Murodboev.** —Bank xodimlari bizning so'rovimizni qisqa muddatda ko'rib chiqib, hal etib berdilar. Bankdan zamonaviy tikuv mashinalari va uskunalar olish uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit oldik. Loyihamiz bo'yicha mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalarida bir martalik foydalanishga mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ishlari amalga oshirildi hamda 10 nafarga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Hozirda shahrimizdagi va respublikamizdagi mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish muassasalariga ishlab chiqarilayotgan mahsulotimiz yetkazib berilmoqda. Biz «Asaka» bank xizmatlaridan minnatdormiz va ularning ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

— Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka alohida e'tibor berilib, zarur shart-sharoitlar yaratilayotganligi biz tadbirkor va ishbilarmonlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda, — deydi Yakkasaroy tumanida faoliyat yuritayotgan **«GRAMPUS» MChJ rahbari Sanjar Muxammadkasimov.** —Banklarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashlari biz uchun ayni muddao bo'lmoqda. Bizning korxonamiz ham ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanmoqda. Shahrimiz aholisini trikotaj mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida trikotaj maxsulotlari ishlab chiqarish uskunalarini sotib olishni rejalashtirdik va rejamizni amalga oshirish maqsadida Respublikamizda yetakchi banklardan biri bo'lmish «Asaka» bankning Toshkent shahar filialiga murojaat etdik. Bank jamoasi bizning kreditga bo'lgan talabimizni tezlikda ko'rib chiqib, ijobiy hal etdi. Bank krediti hisobiga yuqori sifatli, jahon standartlari talabiga mos keladigan trikotaj maxsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan zamonaviy uskunalar olindi va o'rnatildi. Bu esa bizga aholi talabi asosida keng turdagi bolalar va ayollar kiyim kechaklari ishlab chiqarishga keng imkoniyatlar yaratdi. Mazkur loyihani amalga oshirish natijasida jamiyatimizda 10 nafarga yaqin yangi

ishchi o'rinlari yaratildi. Biz «Asaka» bankni faxr bilan “o'zimizning bank” deb ataymiz.

— Bugungi kunda banklar tadbirkorlar bilan nafaqat mijoz sifatida, yaqin hamkor va madadkor sifatida mustahkam aloqa bog'lamoqda, — deydi «**VIRTEX AGRO**» **mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Rahimjon Rixsiev**. — O'z biznesini kengaytirish istagida bo'lgan ishbilarmonlarga birinchi navbatda banklar yordam qo'lini cho'zmoqda. O'z faoliyatim misolida aytadigan bo'lsam, yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin tadbirkorlarga keng qulayliklar yaratilib kelinmoqda, men ham yaxshi niyatlar bilan shahrimiz bozorlarini sifatli, arzon va parxezbop tovuq go'shti va tuxum bilan to'ldirishga astoydil bel bog'ladim. Shu maqsadda shahrimizda eng ko'zga ko'ringan, nufuzli banklardan biri bo'lgan «Asaka» bankning Toshkent shahar filialiga murojaat qildim. Bank ma'muriyati tez fursatda zarur bo'lgan kredit mablag'ini ajratib berdi. «Asaka» bank bilan hamkorlik natijasida parrandachilikni sohasini rivojlantirib shahrimiz bozorlarini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlamoqdaman. Hozirda broyler tovuq go'shti va tuxum mahsulotlarini ishlab chikarishni rivojlantirish, nafaqat shahrimiz, balki Respublikamiz ichki bozorlarini mahsulotlarimiz bilan ta'minlash yo'lida hissamizni qo'shishni niyat qilib turibman. Albatta, bu borada «Asaka» bank bizning yaqin va ishonchli hamkorimiz, doimiy madadkorimiz bo'lib qoladi.

— Tadbirkorlik xarakati uchun qulay muhit yaratib berilgani, sohaga ko'plab imtiyozlar tatbiq qilinayotgani muhim omil bo'ldi, — deydi «**Nika Farm**» **sho'ba korxonasi rahbari Shadiya Kurmukova**. — Xususan, biznes loyihalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishda «Asaka» bank moliyaviy jihatdan qo'llab — quvvatlab kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilarning talabi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu maqsadda shunday loyihani amalga oshirish niyatida bank filialiga kredit olish uchun murojaat qilgandik. Bu masala qisqa muddatlarda ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilgani ayni muddao bo'ldi. Muhtaram Prezidentimizning 2009 yil 28 yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, imtiyozli shartlarda kredit ajratildi. Eng asosiysi, yangi ish joylari yaratilib, kasb-hunar kolleji bitiruvchisining bandligi ta'minlandi. Moliyaviy hamkorimiz bo'lgan «Asaka» bankning sifatli xizmatlaridan mamnunmiz. Ishonamizki, uning moliyaviy ko'magi ishlab chiqarish sur'atini tobora oshirib, mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shish, aholi turmush sharoitlarini yuksaltirishdek ezgu niyatlarimizning ro'yobi yo'lida xizmat qiladi, albatta.

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, ularni ish bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmokda. Davlatimiz Rahbari va Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. «Asaka» bank Toshkent shahar filiali mutaxassislari kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan turli anjumanlar va tadbirlarda faol ishtirok etmoqdalar, yosh tadbirkorlarga imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirilmoqda. Jumladan, “Yoshlar madaniyat va ma'rifat saroyi”da

o'tkazilgan anjumanda, «Diplom bilan biznes g'oyaga» degan bitiruvchilarga, ularning biznes g'oyalarini hayotga tadbiq etish uchun moliyaviy ko'mak berish maqsadida, imtiyozli kredit olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirildi.

—Muhtaram Prezidentimiz tomonidan biz, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida «Asaka» bank Toshkent shahar filialiga murojaat etdim, — deydi **yosh tadbirkor Shoxjahon Muxamedov**. — Qisqa muddat ichida bank tomonidan imtiyozli shartlarda ajratilgan kredit hisobiga go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydim. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar yuqori sifatligi va hamyonbop ekanligi tufayli mijozlarga maqul bo'lmoqda. Men yurtdoshlarimizni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlarda o'zinning kamtarona mehnatim bilan ishtirok etayotganligimdan g'oyat mamnunman. Kelgusida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida xorijdan zamonaviy texnologiyalar keltirib, ishga tushirishni niyat qilganman. Kelajakdagi rejalarimni amalga oshirishda «Asaka» bank qo'llab-quvvatlashiga ishonaman.

Muhtasar qilib aytganda, «Asaka» bank Toshkent shahar filiali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga taqdim etilayotgan bank mahsulotlari va xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash va bank amaliyotlari tezkorligini yanada oshirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan. Bank filiali istiqbolli loyihalar, g'oyalar ustida tinimsiz izlanib, mijozlar ehtiyoji uchun maqbul va qulay bo'lgan xizmat turlarini kengaytirib bormoqda. Bu esa ularning turmush farovonligini oshirish, Toshkent shahar iqtisodiyotini rivojlantirish va turli ijtimoiy muammolarni hal etishda o'z samarasini bermoqda.